

07.00.00 – Tarix fanlari

THE ADDRESS OF THE PRESIDENT IS AN IMPORTANT PROGRAM FOR WOMEN, A SPIRITUAL AND MORAL FORCE.

Nurullaeva Nabira Miratdinovna

Department of "Uzbek Language, Languages and Social Sciences" of the Karakalpak Medical Institute Teacher of Modern History of Uzbekistan

Tel: +998 90 651 71 77

Nukus, Karakalpakstan

Abstract

The role of the President's Address in the life of women, the developed important state and social programs, their spiritual and moral value in increasing the social activity of women in society, the support of women, the protection of their rights and interests, ensuring their spiritual development, education, employment and entrepreneurship, important factors that strengthen self-confidence and life activity, the strength of the family, a healthy lifestyle, the importance of such programs in achieving the development of society

Key words

Address, active civic position, rights and interests, state programs, spiritual and moral education, social support, spiritual maturity, family stability, social activity

PREZIDENT MUROJATNOMASI: XOTIN-KIZLAR UCHUN MUXIM DASTURILAMAL AXAMIYATGA EGA RUXIY-MA'NAVIY KUSH

Annotatsiya

Prezident murojaatnomasining xotin-qizlar hayotidagi o'zni, ishlab chiqilgan muhim davlat va ijtimoiy dasturlar, jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi ruhiy-ma'naviy qiymati, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma'naviy barkamolligini ta'minlash, ta'lim olishi, bandlik va tadbirkorlik, o'ziga ishonch va hayotiy faollikni kuchaytiruvchi muhim omillar, oila mustahkamligi, sog'lom turmush tarzi, jamiyat taraqqiyotiga erishishda bunday dasturlarning muhimligi

Kalt so'zlar

Murojaatnoma, faol fuqarolik pozitsiyasi, huquq va manfaatlar, davlat dasturlari, ruhiy-ma'naviy tarbiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ma'naviy barkamollik, oila mustahkamligi, ijtimoiy faollik

Murojaatnoma – davlatning o'z fuqoralari oldida ochiq hisobdarligini ta'minlaydigan, o'tgan yil davomida amalga oshirgan ishlar, mamlakatni yaqin istiqbolda rivojlantirishga doir strategik maqsadlar, joriy va kelgusi yillarga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar, amalga oshirilishi lozim asosiy vazifalar bayon etilib, siyosiy, iqtisodiy qoidalar, parlamentning dolzarb qonunchilik tashabbuslari ilgari suriladigan muhim instrumentdir.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat boshlig'ining milliy parlament a'zolariga eng asosiy, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar, shuningdek jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnoma bilan chiqish mavjud.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimiz siyosiy hayotida yangilik bo'lgan bunday tadbir ilk bor 2017-yil 22-dekabrda o'tkazilgan edi. Shu yildan boshlab ana shu ilg'or siyosiy-huquqiy amaliyot

– davlat boshlig‘ining Oliy Majlis palatalariga Murojaatnoma taqdim etishi an‘anaga kirdi. Murojaatnoma mamlakatimiz siyosiy-huquqiy tarixida tom ma‘noda yangi voqea bo‘ldi. Zero, chuqur mazmun va katta ahamiyatga ega davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli, bir tomondan, barcha sohalarga aloqadorligi bilan xalqimizda va hamkor mamlakatlarda katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan O‘zbekistondagi keng ko‘lamli va shiddatli islohotlar xalq bilan muloqot prinsipiga hamohang ekanini namoyon etib, bu zamonaviy yondashuv har birimizning faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu galgi Murojaatnomada davlatimiz rahbari “Bugun Oliy Majlisga va ko‘p millatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnomani taqdim etar ekanman...”[1; 1-s.] degan so‘zlar bilan boshlanadi. Bu ibora Murojaatnomaning asosiy yo‘nalishi – kelgusi taraqqiyot strategiyasini belgilash, dolzarb qonunchilik tashabbuslari ilgari surilishi ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, muayyan sohani rivojlantirishni belgilab beradigan yil nomi ham e‘lon qilinishi ko‘zda tutilgan.

2025-yil 28-dekabr kuni Davlat rahbarining O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaati mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Unda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va inson manfaatlarini ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi. Kirib kelayotgan 2026-yil arafasida mamlakatimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, keng jamoatchilik, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlar uchun katta ruhiy-ma‘naviy kuch bag‘ishlagan hujjat sifatida qabul qilindi.

Ma‘lumki, huquqiy demokratik davlatda inson butun ijtimoiy mexanizmning markazini tashkil etib, ushbu mexanizm uning manfaatlariga xizmat qiladi. Zero, inson manfaatlarini ta‘minlangan, huquq va erkinliklari himoyalangan davlatning huquqiy davlat deyish mumkin. Shu o‘rinda ayollar masalasini O‘zbekiston tajribasida tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘ngi yillarda real, rejalashtirilgan davlat siyosati olib borilayotganligi natijasida salmoqli o‘zgarishlar amalga oshirilganligining guvohi bo‘lamiz. Ko‘plab normativ hujjatlar mamlakatimizda ayollar masalalari bilan bog‘liq ijobiy islohatlarning yangi bosqichga ko‘tarilganligini bildiradi.

Mazkur Murojaatnomada yurtimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bilan bir qatorda, mahallaning jamiyatdagi o‘rnini yanada mustahkamlash, oilalar bilan ishlash, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani biz – jamoat tashkilotlari uchun muhim yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ayollar sag‘liqni saqlash, ta‘lim tizimida, davlat boshqaruvining turli yo‘nalishlarida, tadbirkorlik faoliyatida faollik ko‘rsatmoqdalar. So‘ngi yillarda ayollarning ta‘limi, mutaxassislik va ilmiy salohiyatini o‘stirish uchun barcha lozim choralar davlat tomonidan kafolatlanganligi O‘zbekistonda ayollar faolligini oshirishda keng islohatlar olib borilayotganligidan darak beradi.

Bu yilgi murojaat tadbirkor ayollar uchun aniq vazifalarni belgilab berdi. Xotin-qizlar tadbirkorligi iqtisodiy o‘rinish va ijtimoiy barqarorlikning muhim omiliga aylanib borayotganligi, so‘ngi yillarda ayollar uchun biznes boshlash shartlari yengillashishi, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengayganligini alohida takidlash zarur. Prezident murojaati bu siyosat izchil davom etishini tasdiqladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi Qarori [1; 48-s.] doirasida xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini ta‘minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadigan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, o'tgan yillar davomida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilovchi Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi.

Shuningdek, Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasining faoliyati va uning asosiy vazifalari qarorda o'z aksini topdi. Xotin-qizlar orasida og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan muhtoj xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish, xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish ushbu jamg'armaning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Bugungi kunda tadbirkor ayol - faqat biznes egasi emas. U ish o'rinlari yaratuvchisi sifatida oila daromadini ta'minlashda, mahalla hayotida faol ishtirok etadi. Ijtimoiy barqarorlik aynan shu ayollar mehnati bilan mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha to'plangan milliy tajriba xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda. Bunga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubeley sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning rolini bundan buyon ham mustahkamlashni maqsad qilganmiz. Keng mintaqamiz miqyosida esa Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirib, muntazam o'tkazib borish tarafdorimiz"[1; 46-s.] degan taklifining qo'llab-quvvatlanganini aytish mumkin.

O'zbekiston uchunchi renessansni shakllantirish davrida xotin-qizlarga bo'lgan munosabat hamda ularning hayotiy tajribasi, salohiyati va imkoniyatlaridan foydalanish, butun bir jamiyat ayollar faolligidan manfaat olmog'i fuqoralik jamiyatini rivojlantirish jarayonida muhim bo'lgan masalalardan biridir. Shu bois ayollarga keng huquqlar berilishi va imkoniyatlarning ta'minlanishi bizning demokratik va fuqoralik jamiyati qurush borasidagi maqsadlarimizga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz Rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamjihatlikda ish olib borsa, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlashda salmoqli natijalarga erishiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston" 2024
3. Mirziyoyev Sh.M., BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. – Nyu-york, 2025. (Rasmiy matn). <https://president.uz/uz/lists/view/8528>

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожатномаси // Ichonch. 155-156-son
5. Yangi O'zbekistonda barqaror rivojlantirish, tinchlik va islom ma'rifatining xalqaro e'tirofi. Maxsus kurs uchun o'quv qo'llanma. Tashkent. 2025.

